

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy tavalludining  
90 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan

# MUMTOZ ADABIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI

nomli respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

Toshkent  
24-oktyabr, 2025-yil

## METIN IRODA

**Zilola SHUKUROVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*  
*dotsenti, PhD*

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy haqida so‘z ketganda beixtiyor ustozga nisbatan “daryodil qalb”, “metin iroda”, “tog‘dek sabr”, “el ardog‘i” degan ta’riflar yodga keladi. Chunki ustozning hayot yo‘liga nazar solish va bu yo‘lda chekkan mashaqqatlaridan boxabar bo‘lish beixtiyor ana shu ta’riflar aynan ustoz uchun aytilgan degan tasavvurni paydo qiladi. Ustoz Hamidjon Homidiy 1935-yil 4-oktabrda Namangan viloyati Kosonsoy shahri etikdo‘z Abduhamid Xoliqzoda oilasida tavallud topgan. Olimning bolaligi siyosiy buhronlar avjiga chiqqan, millat ziyoli va boylari qattiq ta’qibga uchragan bir davrga to‘g‘ri kelgan. Ota-bobolaridan qolgan mol-mulk sabab Abduhamid Xoliqzoda mulkdor degan tamg‘a bilan quloq qilinadi. Shu topdan boshlab yosh Hamidjon oilasi boshiga og‘ir sinovli yillar boshlandi. Buni olimning o‘zi xotiralarida shunday eslaydi: “Taxminan 1939-yilning oktabr oylari edi. Otam Abduhamid Xoliqzoda yeri, bog‘chasi, ikki kishi ishlaydigan korxonasi, ot-aravasi bo‘lgani, Gulbog‘ mavzeyida 50 gektar yerimiz bo‘lgani uchun mulkdor sifatida quloq etilib, Sibirga surgun qilingan. Mahallada “Ustanikida kimoshdi savdosi bo‘lar ekan”, — duv-duv gap tarqaldi. Haqiqatda ham, bir kuni ertalab uch kishi: A‘lam Mirzo, Yo‘ldosh Shabboda hamda Abdulkarim Mujod kirib kelib, qulflab-muhrlab ketishgan xonalarni ochib, barcha ro‘zg‘or anjomlarini: ko‘rpa-to‘shak, yostiqlar, samovar, chinni kosalar, laganlar, obdasta-yu, choynak, piyolalarni 8 metrlik peshayvonga chiqarib, tartibi bilan joylab chiqishdi... Biz xonavayron bo‘lyapmiz, qo‘shnilar bo‘lsa boyning mulkini arzon-garovga xomtalash qilishayotganidan xursand, olgan buyumlarini qo‘ltiqlab olib chiqib ketishardi... Onasi bilan uch birday

farzandlar qayerda yotadi, qanday tirikchilik oʻtkazadi, degan odamning oʻzi yoʻq. Johillik shu darajaga yetgandi. Tor koʻchamizning boshidagi beva ayol Yoʻldosh amma bizni oʻz bagʻriga olib, bir xonasiga joylashtirdi”. Demak, oilaning tayanchi quloq qilingan, ona va uch farzand qarovsiz qolgan.

Keyinchalik otasi qamoqxonada ogʻir betob boʻlib qolgach, kech kuzda uni uyiga qaytarishadi, biroq erta bahorga chiqib Abduhamid Xoliqzoda vafot etadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar Hamidjon Homidiy uchun ayriliq toʻla yillar boʻldi. Sababi shu yili uning avval ukasi Mahmudjon keyin esa akasi Ahmadjon tif kasalligidan vafot etdi, farzand dogʻiga chiday olmagan ona ham tez orada bu olamni tark etdi. Ana endi butun boshli oiladan yolgʻiz Hamidjon Homidiygina qolib, togʻasining qoʻlida voyaga yetdi. Olimni bolalik erta tark etdi, bir tomondan yetimlik azobi, ikkinchi tomondan esa atrofida gilarining unga nisbatan nafrati yosh Homidiyga nihoyatda ogʻir botardi. “Xalq dushmanining bolasi”, “Quloqvachcha” kabi taʼna-yu dashnomlar bilan voyaga yetgan Homidiy xotiralari haqida gapirganda goʻyoki oʻsha davrga yana qaytib qolgandek koʻzlarida yosh bilan oʻksinib eslaydi: “Telman nomidagi maktabda 7-sinfni tugatgach, bizni “Lenin yoʻli” kolxozi huzuridagi Koʻybeshov nomidagi 6-maktabga koʻchirishdi. Endi biz yuqori sinflarda oʻqishni internatlarda yashab davom ettira boshladik. Mening krovatim hammadan poygakda — eshik yonginasida edi. Quloqvachcha-da! Oʻninchi sinfni bitirish arafasida ustimga yopib yurgan xitoy rusumidagi odevalni kimdir oʻgʻirlab ketdi. Maktab direktori meni “Sen quloqvachcha, yoʻqsil oʻzing sotib yegansan?” deb haqoratlab, maktabning bitiruv tantanasiga ham kiritmadi. Rasmimni vinetkaga tushurmay, otestat bermadi. Natijada men oliy oʻquv yurtlariga borolmay yoki biron ishga joylasholmay arosatda qoldim....Kunlardan bir kun nonushtani qilib, guzarga tushib, soyning ulkan koʻprigi chetida oyogʻimni pastga osiltirib, suvga tushib ketishidan qoʻrqmay salanglatib oʻtirsam:

— Hoy, Hamidov, beri kel, — degan ovoz eshitildi. “Yalt” etib roʻparaga qarasam, suvga kiritib qurilgan “Rayhon” oshxonasi ayvonida in-

ternatimizning boshlig'i Misha Geydarov turardi. Negadir u kishining huzuriga chopqillab bordim.

— Boshqa eskirgan, singan va sotilgan ashyolar qatorida odeyalni ham spisat qildirib yubordim, ma attestatingni ol, ilmiy bo'lim mudiridan oldim — deb sariq ag'darma etigi kunjidan gazetaga o'ralgan attestatni olib uzatdi. Hayron bo'ldim va “Rahmat!” dedim-da mahallaga chopdim. Bir millatdoshim yetimni qon qaqshatdi, ozar farzandi uning boshini siladi”.

Hamidjon Homidiy o'tmish xotiralarini eshitayotib, ba'zan o'zingniki qilmagan yaxshilikni o'zganidan ko'rganingda inson allanechuk holatga tushadi. Yig'lashni ham, kulishni ham bilmaysan. Qiyinchilik va sinovlar insonlarning siyratini ochib beradi, haqiqiy qiyofasi ko'z o'ngingizda namoyon qilib, sarasini sarakka, puchagini puchakka ajratib beradi. O'z manfaati yo'lida millatdoshi, qo'yingki, bir yetim bolani bunchalik xo'rlagan maktab direktori kabi insonlar barcha jamiyatda istalgancha topiladi. Biroq insoniylik va mehr har qanday qiyinchilikni yengib o'tishga, qalbdagi og'ir yaralarni davolashga qodir. Shuncha sinovlarni boshidan kechirgan Hamidjon Homidiy yaxshi insonlar: tog'asi, qo'shnisi Yo'ldosh amma, internat boshlig'i Misha Geydarov, ona tili va adabiyot o'qituvchisi Murodov domla kabilar ko'magida hayot yo'lini sekin-asta topdi. Tinimsiz o'qib izlanishlari va harakatlari samarasida el tanigan, sevgan buyuk olimlar qatoridan joy oldi. Olim o'z faoliyati davomida ilm-ma'rifat yo'lida ko'plab xayrli ishlarni qilib 40 ga yaqin kitob nashr qildirdi, 30 ga yaqin shogirdlarning nomzodlik va doktorlik ishlarida rahbarlik qildi. Ustoz ko'magida himoya qilgan shogirdlar bugun an'anani davom ettirib, bir qancha shogirdlari bilan ishlashmoqda. Bu esa Ustoz-shogird an'anasi davom etib, ustoz yaratgan ijodiy maktab gullab-yashnayotganligidan dalolat beradi.

<b>MUNDARIJA</b>	
Odamiylik mulkining sarkori	5
<b>USTOZGA EHTIROM...</b>	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Ilm fidoyisi	10
Zohidjon SODIQOV. Sodiqlik timsoli	12
Komiljon ABDULLAYEV, Komiljon PAYZIYEV. "Shohnoma"ning shuhrati qadar	17
Jasurbek MAHMUDOV. Ulug' ustoz uslubi	24
Marg'uba ABDULLAYEVA. Oltin olma, duo ol	29
Mo'minjon Sulaymonov. Umr vafo qilsa...	33
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Serzavq olim va ustoz	37
E'tiborxon G'OYIBBOYEVA. Otamdek aziz inson	41
Ozoda TOJIBOYEVA. Daryodil ustoz	46
Husnigul JO'RAYEVA. Hamidjon Homidiy ilmiy-ijodiy faoliyatining tadqiqiga doir mulohazalar	51
Zilola SHUKUROVA. Metin iroda	57
Matluba JABBOROVA. Ustozlik uslubi	60
Dilafroz NAZAROVA. Ibrat timsoli	63
Quvonchbek MAMIRALIYEV. Duogo'y ustoz	67
Dilorom HAYITBOYEVA. Topilmas olim	70
<b>I SHO'BA. HAMIDJON HOMIDOVNING ADABIYOTSHUNOSLIK FAOLIYATI</b>	
Islomjon YAKUBOV. Ilm- ma'rifatga hamdam alloma	74
Tozagul MATYOQUBOVA. Yetuk olim va ma'rifatparvar ustoz	80